



JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

**Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning ijara
to'lovlarini qisman qoplash tartibi to'g'risida**

2026

**Nashr qildi:
Transformatsiya va
strategik rivojlanish ofisi**

**Mas'ul:
Yoshlar ishlari ofisi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida

“Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning ijara to‘lovlarini qisman qoplash” tartibi to‘g‘risida

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalar farovonligini ta'minlash, itimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda oliy ta’limdan teng foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ijarada yashovchi talabalarning ijara to‘lovlarini qisman qoplash bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan mexanizmlarni amaliyotga joriy etib kelmoqda.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida talabalarning turar joy va ijara xarajatlarini qoplash bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.09.2021 yildagi 605-son [“Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”](#), qarori hamda universitetning 2025-yil 22-dekabrda 239-1-UM-son ichki buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

Natijada universitetda quyidagi mexanizmlar amalga oshiriladi:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining [2021-yil 24-sentabrdagi 605-son qarori](#) ijrosini ta’minlash maqsadida ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga institutsional yordam ko‘rsatadi. Mazkur mexanizm doirasida amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lgan talabalarning oylik ijara to‘lovining belgilangan qismi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

2. Universitetda talabalarning ijara to‘lovlarini qoplash bo‘yicha arizalarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi JIDU rektorining 2025-yil 22-dekabrda 239-1-UM-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan ichki tartib asosida amalga oshiriladi. Arizalar va tasdiqlovchi hujjatlar billing.edu.uz axborot tizimi hamda belgilangan ichki tartiblar orqali qabul qilinadi va ko‘rib chiqiladi.

3. Arizalarni ko‘rib chiqish jarayonida Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, Yoshlar ishlari ofisi mas’uli, Xotin-qizlar kengashi vakili, Talabalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ofisi boshlig‘i hamda Moliya ofisi bosh mutaxassisi komissiya a’zolari sifatida ishtirok etishadi.

Talabalar uchun qisqacha yo‘riqnom

Kimlar murojaat qilishi mumkin?

- Ijara shartnomasi asosida yashayotgan va [amaldagi qonunchilik](#) talablariga javob beruvchi talabalar;

Qayerga murojaat qilish kerak?

- Arizalar va zarur hujjatlar kontrakt.edu.uz va ijara.soliq.uz axborot tizimi orqali elektron shaklda topshiriladi.

Arizalarni ko‘rib chiqish bosqichlari:

1. **Ariza topshirish.** Talaba kontrakt.edu.uz va ijara.soliq.uz axborot tizimi orqali ariza, ijara shartnomasi va boshqa zarur hujjatlarni belgilangan muddatda topshiradi.

2. **Hujjatlarni tekshirish.** Yoshlar ishlari ofisi mas’uli hujjatlarning to‘liqligi, formatiga muvofiqligi va haqqoniyligini tekshiradi, talabga javob beruvchi hujjatlarni billing.edu.uz tizimiga yuklaydi.

3. **Fakultet bosqichi.** Fakultet mas’ullari arizalarni ro‘yxatga oladi, dastlabki tahlilni amalga oshiradi va hujjatlarni kurs koordinatorlariga yuboradi.

4. **Talabaning ijtimoiy holatini baholash.** Kurs koordinatorlari talabaning ijtimoiy ahvoli, ijara shartnomasining mavjudligi, taqdim etilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi hamda subsidiya olish huquqini o‘rganadi. Shu asosida, kurs koordinatorlari yozma xulosa tayyorlab, universitet komissiyasiga taqdim etadi.

5. **Komissiya tekshiruvi.** Komissiya a’zolari arizalar va xulosalarni kompleks tarzda tahlil qiladi, zarur hollarda qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi hamda subsidiya yoki kompensatsiya ajratish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

6. **Komissiya bayonnomasi.** Qabul qilingan qarorlar bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi va E-IMZO orqali tasdiqlanadi.

7. **Buyruq.** Rektor yoki vakolatli prorektor komissiya qarori asosida tegishli buyruqni tasdiqlaydi.

8. **Mablag‘larini o‘tkazish.** Moliya ofisi tasdiqlangan buyruq asosida kompensatsiya to‘lovlari belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


Monitoring va amalga oshirish

Arizalarni ko‘rib chiqish jarayonining shaffofligi va qonuniyligini ta’minlash maqsadida taqdim etilgan hujjatlar, muntazam ravishda tekshirib boriladi. Soxta yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan hollarda talabaga 3 ish kunida kontrakt.edu.uz axborot tizimi orqali xabar beriladi va kompensatsiya to‘xtatiladi. Talabaning ijtimoiy holati yoki hujjatlarida o‘zgarish yuz bergan taqdirda yangilangan ariza va tegishli hujjatlar kontrakt.edu.uz axborot tizimi orqali qayta taqdim etilishi zarur. Budget mablag‘laridan maqsadli foydalanilish hamda zarur hollarda ortiqcha yoki asossiz to‘langan mablag‘larni qaytarish bo‘yicha belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘riladi.

Statistik ma’lumotlar

2026-yil fevral oyida 1029 ta ariza qabul qilingan bo‘lib, universitet komissiyasi tomonidan arizalar belgilangan mezonlar asosida ko‘rib chiqilgan.

Infografika 1 da ko'rsatilganidek, JIDUning 2026-yil 19-fevraldagi 4135-son yig'ilish bayonnomasi hamda uning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan JIDU rektorining 2026-yil 26-fevraldagi 350-00178/25-26-son buyrug'i asosida 945 nafar talabaga kompensatsiya ajratildi, 84 ta ariza esa amaldagi talablarga mos kelmagani sababli rad etildi (Infografika 1).



Infografika 1. 2026-yil fevral oyida ijara to'lovlarining bir qismini qoplash bo'yicha arizlar natijalari.

Mazkur natijalar universitetning talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning turar joy bilan bog'liq moliyaviy qiyinchiliklarini bartaraf etish hamda oliy ta'limda tenglikni ta'minlashga hissa qo'shadi.